

**Endokrin kasalliklar kontekstida bolalarda qandli diabetning erta
diagnostikasi va profilaktikasi**

Sh.S. Safaraliyeva, D.Y.Alikulova, B.X.Abdullayeva

Kirish

So‘nggi yillarda pediatriyada 1-tur qandli diabet bilan og‘rigan bolalar sonining ortib borishi butun endokrin tizim faoliyatining izdan chiqishiga olib kelmoqda. Erta aniqlanmagan holatlar og‘ir asoratlar — diabetik ketoatsidoz, o‘shish retardatsiyasi, jinsiy yetilishdagi kechikish va autoimmun tiroidit bilan kechishi mumkin. Shu sababli, zamonaviy diagnostika usullari va profilaktik choralarni bolalarda erta qo‘llash muhim vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi

Bolalarda 1-tur qandli diabetni endokrin buzilishlar kontekstida erta aniqlashning samarali usullarini aniqlash, mavjud xavf omillarini tahlil qilish va klinik asoslangan profilaktika choralarni ishlab chiqish.

Materiallar va usullar

Tadqiqot Toshkent shahridagi 2 ta bolalar endokrinologik markazi bazasida olib borildi. 2023–2024 yillar davomida 1-tur diabet bilan yangi aniqlangan 52 nafar 5–14 yoshdagi bemor bola (29 nafar o‘g‘il bola, 23 nafar qiz bola) kuzatildi.

Baholangan ko‘rsatkichlar:

HbA1c, TSH, FT4, IGF-1, LH, FSH, prolaktin darajalari

Anti-GAD, ICA, IAA kabi autoimmun markerlar

Glyukozaga tolerantlik testi (OGTT)

Boshqa endokrin kasalliklar bilan komorbidlik (Hashimoto, gipogonadizm, semizlik)

Usullar:

a)biokimyoviy tahlillar (ELISA, immunoxemiluminescent usul)

b)statistika uchun SPSS dasturi ($p < 0,05$ ishonch darajasi)

Natijalar va tahlil

1. 52 bemordan 38 nafarida (73%) diabet tashxisi qo‘yilganida o‘shish sur‘atining pastligi aniqlangan (IGF-1 past).

2. 21 nafarida (40%) autoimmun tireoidit belgilariga ega bo‘lgan TSH va anti-TPO oshgan holatlar qayd etildi.

3. 16 nafar (30%) qiz bolada menarxening kechikishi va FSH/LH muvozanatsizligi aniqlangan.

4. Erta klinik belgilarga ega bo‘lgan 9 nafar bolada profilaktik choralar natijasida HbA1c darajasi 6 oy ichida 9,5% dan 6,8% gacha pasaygan.

5. 85% holatda oilaviy anamnezda diabet mavjudligi aniqlangan — bu xavf omilining yuqoriligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, 1-tur qandli diabet bolalarda boshqa endokrin buzilishlar bilan birgalikda kechadi va bu holat kasallikning og‘irroq kechishiga olib keladi. Erta tashxis qo‘yish uchun immunologik testlar, gormonal profil va genetik skrining asosiy vosita hisoblanadi. Profilaktika choralariga sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik, stressni boshqarish, shuningdek, dispanser nazoratining joriy etilishi kiradi. Kelgusida endokrin kasalliklarga moyil bolalarda muntazam monitoringning yo‘lga qo‘yilishi sog‘liqni saqlash tizimi uchun strategik muhim yo‘nalishdir.

Research Science and
Innovation House